



YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA HUQUQIY TA'LIM MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH UCHUN FUQAROLARNING HUQUQIY ONG HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN SAMARALI ISLOHOTLAR

Mutallibjonov Usmonjon Ixtiyorjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qtuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7996860>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil

Ma'qullandi: 28-May 2023 yil

Nashr qilindi: 31-May 2023 yil

KEY WORDS

Huquqiy madaniyati, adolat va qonuniylik, milliy qadriyatlarga, ma'nan sog'lom, Yoshlarga oid davlat siyosati, ijtimoiy ong.

ABSTRACT

Maqolada Mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlar fuqarolarning huquqiy ongi huquqiy madaniyatini oshirish borasida oib borilayotgan islohotlar to'g'risida ma'lumotlar o'rganib chiqildi.

Huquqiy madaniyat asrlar davomida xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham jamiyatda kishilarning fikrini, tafakkurini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtimonga asoslangan munosabatni, fuqarolarning qonunga itoatkorlik tuygusini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talablaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi o'z Mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning barkamolligi, mustaqil fikrli va mas'uliyatli bo'lishi hamda milliy istiqlolni qadrlash, milliy qadriyatlarga chuqur hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishi uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash maqsadida huquqiy asoslar ham yaratildi.

Yoshlar qatlami deganda, dunyoning turli mamlakatlarida turli yoshdagi fuqarolar tushuniladi. Masalan, AQSh va Yaponiyada 13-14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo'lgan shaxslar yoshlar hisoblansa, Bolgariyada 15 yoshdan 29 yoshgacha, Rossiyada 15 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar yoshlar toifasiga kiradi. Germaniyada "kichik yoshdagi yoshlar" 14-18 yosh hamda "katta yoshdagi yoshlar" 18-27 yoshga bo'linadi. O'zbekiston

Respublikasida esa 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar toifasini tashkil etishi O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida belgilab qo'yilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2016-yilning 14-sentabrida qabul qilingan ushbu qonun yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu yo'nalishlar ichida yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash; ularning huquqiy ongi va madaniyati darajasini yuksaltirish kabilar ham mavjud. Yoshlarning haq-huquqlari ta'minlanishi uchun nafaqat davlat organlarining kafolati, balki yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasi ham katta ahamiyatga ega. Yuridik fanlari nomzodi, dotsent N. Saburov fikricha, "huquqiy ong – bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his-tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir". Huquqiy madaniyat uchun huquqiy ong zaruriy element ekanligini hisobga olgan holda shuni e'tirof etish kerakki, huquqiy ong bo'lishi uchun avvalo huquqiy savodxonlik juda zarurdir. Huquqiy savodxonlik fazilati shaxs – jamiyat –davlat munosabatlariga muhim ta'sir ko'rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini beradi. Yuridik adabiyotlarda huquqiy savodxonlik tushunchasiga yakdil ta'rif berilmagan bo'lsa-da, ulardan quyidagicha tushuncha hosil qilish mumkin: huquqiy savodxonlik – bu yuridik matnlardagi atamalarni tushunish, ulardan umumiy xulosalar chiqarish va bu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobilayatidir. Xorijiy yuridik adabiyotlar ham shunga yaqin mazmuni ifodalaydi, ya'ni shaxsning o'z huquq va majburiyatlarini tanishi, qaysi holatlar yuridik nizo ekanligini bilishi va ularga qonuniy yechim topa olishi, huquqiy axborotni qayerdan topishni, yuridik yordamni qayerdan va qanday qilib olishni, qonunchilik tizimida qaysi choralar borligini hamda protsessual tartibni bilishi huquqiy savodxonlik belgilari hisoblanadi.

Yoshlar orasida huquqiy savodxonlikning pastligi nafaqat, ularning o'zlari uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham zararlidir. Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi yoshlarning o'z huquqlaridan to'laqonli foydalana olmasliklariga, majburiyatlaridan bexabar qolishlariga sabab bo'ladi. Majburiyatlardan bexabarlik yoki harakatlarining huquqiy oqibatini anglamaslik bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Biz huquqiy-demokratik davlat qurishni oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun huquqiy ongi va madaniyati yuksak yoshlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunga esa huquqiy savodxonlikni oshiribgina erishishimiz mumkin. Qisqasini aytganda, "Faqat chuqur o'ylangan va tezkor davlat siyosatigina yoshlarning huquqiy madaniyatini ko'tara oladi va ularning huquqiy ongi darajasini yuksaltirishga yordam beradi".

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida Mustaqillik davrida qator tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bular qatoriga "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi

to'g'risida"gi Qarori kabilarni kiritish joiz. Bu qonun hujjatlarining ijrosi sifatida qator amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, Adliya vazirligi huzurida 2009-yilda tashkil etilgan yosh huquqshunoslardan iborat "Huquqiy targ'ibot guruhi" faoliyati e'tirofqa loyiq. Ma'lumot o'rnida keltirish joizki, shu paytgacha bu targ'ibot guruhi respublikamizning 70dan ortiq tumanlariga borib, 62 mingdan ortiq yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazdi, ularning huquqiy savodxonligini oshirishga katta hissa qo'shdi. Shu bilan birga, har yili o'tkazib kelinayotgan "Siz qonunni bilasizmi?", "Huquq bilimdonlari" kabi ko'rik tanlovlar, fan olimpiadalari ham yoshlarning huquqiy savodxonlikni oshirishga bo'lgan qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Yangi qabul qilinayotgan qonunlarning yoshlar hayotiga ta'siri katta, albatta. Ularning bu qonunlar haqida axborot olishlari, undagi normalarga tushuntirishlar talab qilish huquqi ham qonunan mustahkamlangan.

Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot goyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar oz ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi. Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan song aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga kop jihatdan bog'liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy - huquqiy tadqiqotlarni tashkil etilgan. Ammo bugungi kunga kelib zamon o'zgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi o'zgarganligi sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qoyilmoqda. Bundan tashqari 2017 -yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018- yil 13- apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya orgnlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag " Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni va boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko'rish mumkin.

Aholining qonunlarga huquqiy jarayonlarga ishtirokini va ularning xabardorlik darajasini aniqlash uchun alohida jamoatchilik fikri so'rovlari ham o'tkazilib turiladi. Misol tariqasida 2017-yilda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi " mavzusida jamoatchilik fikri so'rovi o'tkazilgan edi. O'tkazilgan so'rov ma'lumotlariga kora, fuqarolarning mutlaq ko'pchiligi, ya'ni 90,5 foizi O'zbekiston Konstitutsiyasini "mamalakatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh hujjat", deb hisoblaydi, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning fundamental asoslari, inson huquqlarini himoya qilish va

mustahkamlashga, demokratiya va ijtimoiy adolat ideallariga, fuqarolar osudaligi va millatlararo totuvlikni ta'minlashga sodiqlik mustahkamlab qo'yilgan. Mutlaq ko'pchilik fuqarolarning - 86,3 foizining fikricha, asosiy qonun nafaqat davrning zamonaviy talablariga javob beradi, balki istiqbolga mo'ljallangandir deya fikr bildirishgan. Mazkur so'rovda aholining o'z fuqarolik huquqlari to'g'risida xabardorlik darajasi aniqlandi. "Siz o'z fuqarolik huquqlaringizni bilasizmi?", degan savolga fuqarolarning mutlaq ko'pchiligi - 92,6 foizi tasdiqlovchi ovoz berdi. Xuddi shunday ijtimoiy so'rovlar tez-tez o'tkazilib turilishi aholining fikrini o'rganish va ularda mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev "Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: "Deputatlarning ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: "Markaz - viloyat - tuman" tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi",- degan fikrni aytib o'tdilar, buning boyisi Mamlakatimizdagi barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xalqning orasida bo'lib barcha taklif va tavsiyalar, kamchiliklarni o'rganib chiqib xalq manfaatlaridan, xalq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda adolatli qonunlarni yaratishlari shart va zarurdir. Bekorga "Markaz-viloyat-tuman" tartibida ishlaydigan tizim deb aytmaganlar, har qanday siyosatda bo'ladigan o'zgarish va qo'shimchalar markazdan viloyatga undan tuman va boshqa chekka hududlargacha yetib borishi xalq xabardor bo'lishi va o'z fikr -mulohazalarini yetkazishi kerak ekanligini hisobga olib bunday tizim yartish kerakligini aytib o'tganlar. Mamlakatimizda ijroga yo'naltirilgan har bir qonun, amaldagi huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalardan aholini izchil hamda keng xabardor qilishda jamoatchilik ishtiroki va faolligi muhim. Kommunikatsiya texnologiyalari, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim. 2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda: jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish uchun qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017 -yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni.
2. 2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni.
3. 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonuni.
4. 2016-yilning 14-sentabrida qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni.